

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSIDA “FUQARO” VA “JISMONIY SHAXS” TUSHUNCHALARI QIYOSIY TAHLILI: MILLIY QONUNCHILIK VA XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA

O‘rolova Nozima Erkin qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Prokurorlik faoliyati” yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

E-mail: urolovanozima5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19853842>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi “fuqaro” va “jismoniy shaxs” tushunchalarining huquqiy mazmuni tahlil qilinadi. Mazkur tushunchalarning milliy fuqarolik huquqiy qonunchilikda subyekt sifatidagi maqomi xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan holda tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida “fuqaro” va “jismoniy shaxs” atamalarining fuqarolik qonunchiligida qo‘llanishiga oid taklif va xulosalar beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется правовое содержание понятий «гражданин» и «физическое лицо», закреплённых в Гражданском кодексе Республики Узбекистан. Исследуется правовой статус указанных понятий как субъектов гражданско-правовых отношений в национальном законодательстве в сравнении с законодательством зарубежных государств. По результатам исследования даны предложения и выводы, касающиеся применения терминов «гражданин» и «физическое лицо» в гражданском законодательстве.

Annotation: This article analyzes the legal content of the concepts “citizen” and “natural person” as defined in the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. The legal status of these concepts as subjects of civil law relations is examined within the framework of national legislation and in comparison with the legislation of foreign countries. Based on the results of the study, proposals and conclusions are presented regarding the use of the terms “citizen” and “natural person” in civil legislation.

Kalit so‘zlar: fuqaro, jismoniy shaxs, fuqarolik kodeksi, huquqiy maqom, fuqarolik huquqi, xorijiy tajriba, huquqiy subyekt.

Ключевые слова: гражданин, физическое лицо, Гражданский кодекс, правовой статус, гражданское право, зарубежный опыт, субъект права.

Keywords: citizen, natural person, Civil Code, legal status, civil law, foreign experience, legal entity (subject of law).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo‘ladilar.¹ Shu o‘rinda qonun chiqaruvchi Fuqarolik kodeksining 16-moddasida fuqaro tushunchasiga ham ta‘rif beradi.

16-modda. Fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, ushbu Kodeksning qoidalari barcha fuqarolarga nisbatan qo'llaniladi.²

Bizning fikrimizcha, ushbu normada fuqaro tushunchasi jismoniy shaxs tushunchasiga nisbatan torroq ma'noga ega va alohida subkategoriyani ifodalab keladi. Jismoniy shaxs tushunchasi umumiy keng ma'noli tushunchadir. Jismoniy shaxs tushunchasi bu normada fuqaro tushunchasi bilan sinonim bo'la olmaydi. Normativ-huquqiy hujjatlarning alohida leksik xususiyatlaridan biri bu ta'rifning aniqligidir. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarida tushunchaning yoki atamaning ta'rifi uning mazmunini to'liq ochib berishi kerak.³ Ta'rif qancha aniq va tushunarli bo'lsa, normani talqin etishda turli xil tushunmovchilik va chalkashliklar kelib chiqishi kamayadi, huquqni qo'llashda yagona amaliyot shakllanadi va bu qonun ustuvorligining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Shu o'rinda, yuqoridagi tushunchalarga O'zbek tili izohli lug'atlarida qanday ta'riflar keltirilganligini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fuqaro so'zi faqir so'zining ko'plik shakli bo'lib, u biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan) aholisi, grajdanlar ma'nosini ifodalaydi.⁴ Jismoniy so'zi jonli organizmlarga nisbatan ishlatiladigan kategoriya bo'lib, jonli organizmlarning jismiga oid; muskul harakatlari bilan bog'langan degan ma'nolarda keladi.⁵ Shaxs esa, jamiyatdagi alohida bir kishi, odamni ifodalab keladigan tushunchadir.⁶ Bu ta'riflardan kelib chiqib jismoniy shaxs tushunchasiga- bu huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, ularni amalga oshirish, shuningdek, o'z harakatlari bilan huquqiy munosabatlarning subyekti bo'la oladigan, tug'ilgan paytdan to vafotigacha huquqiy layoqatga ega bo'lgan inson deb ta'rif berishimiz o'rinlidir. Olima Y.V.Repnikovaning fikricha, “jismoniy” atamasi huquq layoqatiga ega bo'lgan subyektning tananing tabiiy shaklini bildiradi. Inson fenomenini sezgi vositalari orqali aniqlash uning jismoniy shaxs sifatidagi umumiy maqomini, fuqarolik huquqi subyekti va subyektiv huquqlar hamda yuridik majburiyatlar abstrakt sohibi ekanligini to'liq tasdiqlaydi.⁷ Odatda yuridik adabiyotlarda jismoniy shaxsning uchta belgisi ajratib ko'rsatiladi va ular tizimli jihatdan shakllantiruvchi sifatida qaraladi: inson shaklida biologik hayotning mavjudligi, uning ismi va yashash joyi.⁸

Darhaqiqat, “jismoniy shaxs” tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, boshqa davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni o'z ichiga oladi. Ushbu atama, insonning davlat bilan fuqarolik-huquqiy aloqasining mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, uni huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatiga ega mustaqil huquq subyekti sifatida ifodalovchi umumiy va universal huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Bu masalada xorijiy davlatlarning fuqarolik qonunchiligi normalarini ham tadqiq etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Ukraina Fuqarolik kodeksining 2-moddasida, ***jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat*** fuqarolik huquqiy munosabatlarning

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>

³ Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/docs/-5378966>

⁴ <https://izoh.uz/word/fuqaro>

⁵ <https://izoh.uz/word/jismoniy>

⁶ <https://izoh.uz/word/shaxs>

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanstvo-i-pravosubektnost-fizicheskogo-litsa/viewer>

⁸ С.Н. Братусь. Субъекты гражданского права. — М.: ГИЮЛ, 1950, с. 5, 83; И.А. Покровский. Основные проблемы гражданского права.

ishtirokchisi bo'lishi belgilangan. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan **inson jismoniy shaxs** deb e'tirof etilishi haqidagi qoidalar mavjud.⁹ Xuddi shunday norma Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham belgilangan. Germaniya Fuqarolik kodeksida fuqarolik huquqiy munosabatlarning subyektlari sifatida **jismoniy shaxslar, iste'molchilar va tadbirkorlar** ko'rsatilgan.¹⁰

Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 12-moddasiga muvofiq, fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida jisminiy shaxs tushunchasiga quyidagi ta'rif keltirilgan. **Jismoniy shaxslar deganda, Qozog'iston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar** tushuniladi. Ushbu bobning qoidalari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, barcha jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.¹¹

Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik kodeksida keltirilishicha, fuqarolik huquqi shaxslar o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, **jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va yuridik shaxs tashkil etmagan shaxslar** fuqarolik huquqiy munosabatlarning subyektidir. Fuqarolik huquqining barcha subyektlari fuqarolik ishlarini yuritishda teng huquqiy maqomga ega ekanligi haqidagi qoidalar mustahkamlangan.¹²

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, fuqarolik qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan fuqaroning huquq layoqati, ushbu layoqatning huquqiy mazmuni hamda fuqaroning yashash joyi institutiga doir normalarni chuqur tahlil etish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq va dolzarb hisoblanadi.

17-modda. Fuqarolarning huquq layoqati

*Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.*¹³

Fuqarolik kodeksida fuqarolarning huquq layoqatiga nisbatan mazkur ta'rif keltirilgan bo'lib, bu norma fuqarolarning huquq layoqatiga oid qoidalarni batafsil ifodalab kelmagan. Birinchidan, “fuqaroning huquq layoqati tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi” jumlasining noaniqligi. Tug'ilish deganda bolaning faqat jismonan tug'ilishi nazarda tutiladimi yoki tirik holda tug'ilishi shartmi - bu aniq belgilanmagan. Ikkinchidan, norma homila holatidagi individni huquq subyekti bo'lish yoki bo'lmaslik haqidagi qoidani belgilamagan. Ma'lumki, meros, zarar yetkazish, aliment va boshqa fuqarolik huquqiy munosabatlar yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarda Kodeksning Umumiy qismida bu boradagi qoidani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, “barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi” qismidan keyin “hamda davlat tomonidan kafolatlanadi” jumlasini qo'shish bilan to'ldirilishi mumkin. Shuningdek, jismoniy shaxsning huquq layoqatidan to'liq foydalanishi uning muayyan yoshga to'lishi fakti bilan bog'liqligi haqidagi qoidalar ham belgilanishi

⁹ CIVIL CODE OF UKRAINE <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=8896>

¹⁰ German Civil Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html

¹¹ Civil Code of Kazakhstan <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K940001000>

¹² <https://regional.chinadaily.com.cn/pdf/CivilCodeofthePeople'sRepublicofChina.pdf> Civil Code of the People's Republic of China

¹³ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>

maqsadga muvofiq bo'lardi. Mazkur normadagi “vafot etishi bilan tugashi” qismini “shaxs vafot etgan deb e'lon qilingan yoki bedarak yo'qolgan” jumlasini bilan to'ldirishni taklif qilamiz.

Jismoniy shaxsning huquq layoqati yuzasidan Ukraina Fuqarolik kodeksida ushbu qoida mustahkamlangan.

Barcha jismoniy shaxslar fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) ga ega.

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi. Qonunda belgilangan hollarda homila holatida bo'lgan lekin hali tug'ilmagan bolaning manfaatlari ham himoya qilinadi. Qonunda belgilangan ayrim holatlarda fuqarolik huquq va majburiyatlariga ega bo'lish jismoniy shaxsning belgilanganyoshga to'lishi bilan bo'g'liq bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxsning huquq layoqati uning vafot etishi bilan tugaydi.¹⁴

Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik kodeksida keltirilayotgan normalar belgilangan.

Jismoniy shaxs tug'ilgan paytdan boshlab vafot etgan paytigacha quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- fuqarolik-huquqiy huquqlardan foydalanish layoqatiga ega bo'lish;
- fuqarolik-huquqiy huquqlardan foydalanish va ularni amalga oshirish;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni bajarish.

Barcha jismoniy shaxslar fuqarolik-huquqiy huquqlardan foydalanish layoqatida tengdirlar. Jismoniy shaxsning tug'ilgan va vafot etgan vaqti uning tug'ilganlik yoki vafot etganlik to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan vaqt bilan belgilanadi. Agar tug'ilganlik yoki vafot etganlik to'g'risidagi guvohnoma mavjud bo'lmasa, bu vaqt jismoniy shaxsning uy xo'jaligi daftari yoki boshqa yaroqli shaxsni tasdiqlovchi hujjatda qayd etilgan vaqt asosida aniqlanadi. Agar ushbu hujjatlarda ko'rsatilgan vaqtni rad etuvchi yetarli dalillar mavjud bo'lsa, bunday dalillar asosida belgilangan vaqt ustun hisoblanadi.

Homila meros olish, hadyani qabul qilish va homilaning manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq boshqa holatlarda fuqarolik-huquqiy huquqlardan foydalanish layoqatiga ega deb hisoblanadi. Biroq, agar homila o'lik tug'ilgan bo'lsa, u bunday huquq layoqatiga boshidan ega bo'lmagan hisoblanadi. O'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxs voyaga yetgan shaxs hisoblanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs voyaga yetmagan shaxs sifatida e'tirof etiladi.¹⁵

18-modda. Fuqarolar huquq layoqatining mazmuni

*Fuqarolar: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishlari; mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.*¹⁶

Ushbu normada qonun chiqaruvchi fuqarolarning huquq layoqatining mazmunini ifodalar ekan, ularning qator huquqlarini qamrab olgan holda, normaning ikkinchi qismida

¹⁴ Civil Code of Ukraine <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=8896>

¹⁵ <https://regional.chinadaily.com.cn/pdf/CivilCodeofthePeople'sRepublicofChina.pdf>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>

“ochiq ro‘yxat prinsipi”ga amal qilib, qonunchilik rivoji uchun yangi huquq turlariga joy yaratmoqda. Bu normaning kamchiligi shundaki, u faqat namunaviy ro‘yxat beradi, lekin huquq layoqatining tuzilmasini va chegarasini tushuntirib bermaydi. O‘zbekiston FK 18-moddasi fuqarolarning huquq layoqatini “mulkka egalik qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, bitimlar tuzish” kabi misollar orqali ochgan. Bu misollar faqat huquqlarning ayrim turlarini sanab o‘tadi, lekin huquq layoqati nima asosda, qanday chegarada va qaysi shaxsiy sifatlar bilan bog‘liq ekanini tushuntirmaydi. Huquq layoqati — bu huquqni egallash imkoniyati, uning turlari esa jamiyat taraqqiyotiga qarab kengayadi. Shu bois, normada chegaralar emas, prinsiplar belgilanishi kerak.

Jismoniy shaxsning fuqarolik-huquqiy layoqati hajmi

Barcha jismoniy shaxslar fuqarolik-huquqiy huquqlarga va majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyatida tengdirlar. Jismoniy shaxs Ukraina Konstitutsiyasi va ushbu Kodeksda belgilangan barcha shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lish qobiliyatiga ega. Jismoniy shaxs ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan barcha mulkiy huquqlarga ega bo‘lish qobiliyatiga ega. Jismoniy shaxs Konstitutsiya, ushbu Kodeks yoki boshqa qonunlarda bevosita ko‘rsatilmagan, ammo qonunga va jamiyatning axloqiy tamoyillariga zid bo‘lmagan boshqa fuqarolik huquqlariga ham ega bo‘lishi mumkin.

Jismoniy shaxs fuqarolik munosabatlarining ishtirokchisi sifatida majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyatiga ega.¹⁷

Bu norma barcha jismoniy shaxslarning huquq layoqati hajmini teng deb e‘tirof etadi. Ya‘ni, shaxsning millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli yoki diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar, u bir xil darajada huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyatiga ega. Normada jismoniy shaxsning huquqlari nafaqat Kodeks va qonunlarda, balki Konstitutsiya hamda axloqiy tamoyillarga muvofiq ravishda aniqlanishi ko‘rsatilgan. Normaning so‘nggi qismida jismoniy shaxs fuqarolik munosabatlarining ishtirokchisi sifatida majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyatiga ham egaligi ta‘kidlanadi. Bu huquq subyekting to‘liq huquqiy maqomini belgilaydi, chunki huquq layoqati faqat huquqlarga emas, balki majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish imkoniyatiga ham taalluqli.

Fuqarolik kodeksida fuqaroning yashash joyi bilan bog‘liq bo‘lgan normalarda ham huquqiy bo‘shliq mavjud ekanligini keltirishimiz mumkin. Fuqarolik qonunchiligida jismoniy shaxslar muomala layoqatini amalga oshirish yuzasidan o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar), o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar, voyaga yetgan shaxslar sifatida toifalanadi.

21-modda. Fuqaroning yashash joyi

Fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi. O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari - ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.

Yuqoridagi normada o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning ham yashash joyi belgilanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. “O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning yashash joyi ularning ota-onalari (farzandlikka oluvchilari) yoki homiylari bilan birgalikda yashaydigan joyi hisoblanadi. Voyaga

¹⁷ Civil Code of Ukraine <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=8896>

yetmagan shaxs sud yoki vasiylik va homiylik organining qaroriga binoan mustaqil yashash joyini tanlashi mumkin” degan qism kiritilishi kerak.

Jismoniy shaxsning yashash joyi

Jismoniy shaxsning yashash joyi - u doimiy yoki vaqtincha yashaydigan uy-joy hisoblanadi. O‘n to‘rt yoshga to‘lgan jismoniy shaxs qonun bilan belgilangan cheklavlardan tashqari, o‘z yashash joyini erkin tanlaydi.

O‘n yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan jismoniy shaxsning yashash joyi - uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki ular orasidan biri bilan birga yashayotgan shaxsning, vasiylik qiluvchining yoki u yashayotgan ta‘lim muassasasi, sog‘liqni saqlash muassasasi va shu kabi boshqa tashkilotning joylashgan joyi hisoblanadi, agar bola bilan ota-onasi (farzandlikka oluvchilari, vasiy) yoki unga nisbatan vasiylik funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkilot o‘rtasida boshqa yashash joyi to‘g‘risida kelishuv mavjud bo‘lmasa.

Agar nizoli holat yuzaga kelsa, o‘n yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan jismoniy shaxsning yashash joyi vasiylik va homiylik organi yoki sud tomonidan belgilanadi.

O‘n yoshga to‘lmagan jismoniy shaxsning yashash joyi - uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki ular orasidan biri bilan birga yashayotgan shaxsning, vasiylik qiluvchining yoki u yashayotgan ta‘lim muassasasi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining joylashgan joyi hisoblanadi. Muomalaga layoqatsiz jismoniy shaxsning yashash joyi - uning vasiylik qiluvchisining yashash joyi yoki unga nisbatan vasiylik funksiyalarini amalga oshiruvchi tegishli tashkilotning joylashgan joyi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs bir nechta yashash joyiga ega bo‘lishi mumkin.¹⁸

Bu norma batafsil darajada tahlillangan, har bir yosh toifasi uchun alohida tartib belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu huquqni qo‘llash amaliyotida bola manfaatlarini ta‘minlash, sud amaliyotida normalarni to‘g‘ri qo‘llash va qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashda ijobiy jihatdan namoyon bo‘ladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida “fuqaro” va “jismoniy shaxs” tushunchalari semantik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning huquqiy mazmuni, qo‘llanish sohasi hamda funksional vazifasi nuqtayi nazaridan muayyan farqlar mavjud. “Jismoniy shaxs” fuqarolik huquqining universal subyekti sifatida - insonni huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi, huquq va majburiyatlarga ega bo‘luvchi mustaqil huquqiy birlik sifatida ifodalaydi. “Fuqaro” esa, o‘z navbatida, shaxsning muayyan davlatga siyosiy-huquqiy mansubligini bildiruvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Ukraina, Xitoy va Qozog‘iston qonunchilik tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, “jismoniy shaxs” kategoriyasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda kengroq qamrovga ega bo‘lib, “fuqaro” tushunchasidan farqli ravishda, shaxsning fuqarolik maqomidan qat‘i nazar, uni huquq subyekti sifatida tan oladi. Bu yondashuv huquqni qo‘llash amaliyotida aniqlik, izchillik va barqarorlikni ta‘minlaydi.

Mazkur tajribani inobatga olgan holda, milliy fuqarolik qonunchiligida “fuqaro” va “jismoniy shaxs” tushunchalarining huquqiy delimitatsiyasini yanada aniq belgilash, ularning terminologik qo‘llanishi va normativ mazmunini yagona huquqiy standart asosida uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa fuqarolik-huquqiy munosabatlarda huquqiy

¹⁸ Civil Code of Ukraine <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=8896>

aniqlikni, shaffoflikni hamda xalqaro huquq standartlariga muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, amaldagi fuqarolik qonunchiligida fuqarolarning huquq layoqati mazmuni to'liq ochib berilmagan. Huquq layoqati insonning tug'ilishidan vafotigacha davom etuvchi, ajralmas huquqiy sifat sifatida tan olinsa-da, amaliy jihatdan ushbu institutning cheklanish asoslari, huquqdan foydalanish imkoniyatlari va himoya mexanizmlari batafsil tartibga solinmagan. Shu bois, mazkur institutni xalqaro huquq standartlari va inson huquqlariga oid universal tamoyillar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, “huquq layoqati” va “muomala layoqati” o'rtasidagi nisbatni aniq belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksining 21-moddasida fuqaroning yashash joyiga oid norma mazmunida ayrim kamchiliklar mavjud. Jumladan, unda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning yashash joyi mustaqil tarzda belgilanmagan. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotida nizoli vaziyatlarga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur moddani “o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning yashash joyi ularning ota-onalari (yoki homiylari) bilan birgalikda yashaydigan joy hisoblanadi, biroq sud yoki vasiylik va homiylik organining qaroriga binoan mustaqil yashash joyi tanlanishi mumkin” degan norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Ukraina, Xitoy va Qozog'iston fuqarolik qonunchiligidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, “jismoniy shaxs” tushunchasi huquq subyekti sifatida kengroq talqin qilinadi va barcha insonlarni, shu jumladan, chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ham qamrab oladi. Bu yondashuv normativ barqarorlikni, huquqni qo'llash aniqligini hamda xalqaro huquqiy standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O'zbekiston fuqarolik qonunchiligida “fuqaro” va “jismoniy shaxs” tushunchalarining huquqiy delimitatsiyasini aniq belgilash, fuqarolarning huquq layoqati institutini yanada takomillashtirish hamda yashash joyiga oid normalarni xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish - fuqarolik huquqining tizimlilikini, huquqni qo'llash samaradorligini va inson huquqlarining amaliy kafolatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>
2. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/docs/-5378966>
3. Civil Code of Ukraine <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=8896>
4. German Civil Code https://www.gesetzeiminternet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html
5. <https://regional.chinadaily.com.cn/pdf/CivilCodeofthePeople'sRepublicofChina.pdf> Civil Code of the People's Republic of China
6. Civil Code of Kazakhstan <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K940001000>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanstvo-i-pravosubektnost-fizicheskogo-litsa/viewer> Юлия Валерьевна Репникова, Гражданство и правосубъектность физического лица
8. С.Н. Братусь. Субъекты гражданского права. — М.: ГИЮЛ, 1950, с. 5, 83; И.А. Покровский. Основные проблемы гражданского права.